

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

“PEDAGOGIKA” FAKULTETI

«MAKTABGACHA TALIM» KAFEDRASI

«Maktabgacha talim» ta'lim yo'nalishi 3 “d” kurs talabasi
Abdullaeva Shirinning

«Pedagogika fanini o'qitish metodikasi» fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Fanlarni o'qitishda interaktiv modellashtirish
metodlaridan foydalanish

Qabul qildi:

G.Torebekova



Nukus-2014 yil

Mundarija:

- I Kirish
- II Asosiy qism
 - II.1 Ta'limni rivojlantirish bosqichida pedagogik texnologiya mohiyati
 - II.2 Talim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish
 - II.3 Talimning interfaol metodlari
 - II.4 O'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalarni turlari
- Xulosa
- Foydalangan adabiyotlar

KIRISH

Davlatimiz istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samaradorligi yuqori malakali, yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirish muammosi bilan uzviy bog'liq. Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar ana shu maqsadlarni ruyobga chiqarishga qaratilgan.

Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi, o'quv tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma - bosqich hal etish yo'llar va vositalari Vazirlar Mahkamasi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda belgilab berilgan. Ta'limning samaradorligini oshirishda yuksak imkoniyatlarga ega bo'lgan vositalardan biri sifatida ta'limning faol usullari qaralayapti. Ta'lim- tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar tushunchasining kirib kelishi va o'sha texnologiyalarning keng qo'llanilishi hozirgi zamon talabidir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimini, kadrlar tayyorlashni yangilash vazifalarini ta'lim – tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni jadal kiritish, auditoriyada, sinfda, darsdan tashqarida o'quv tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning faolligini oshirishga erishish orqaligina bajarish mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib boromoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, musatqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi,

shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi – talaba asosiy figuraga aylanadi.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Ushbu masalalar bizning **kurs ishining dolzarbligi** bo'lib hisoblanadi.

Kurs ishining maqsadi: Ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish yo'llarini o'rganish.

Kurs ishining predmeti: Ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish yo'llari

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda qo'yidagi **vazifalarni** bajaramiz:

- tadqiqot muammosi bo'yicha tegishli adabiyotlarni taxlil qilish;
- ta'lim jarayoni va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik xususiyatlarini o'rganish;
- ta'limning faol usullari, ya'ni pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash maqsadlari bilan tanishish;

II.1. Ta'limni rivojlantirish bosqichida pedagogik texnologiya moxiyati

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya soxasini islox qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan xayotimiz jabxalarida ruy beradigan "portlash effekti" natijalari ruy-rost kursatib berildi, ya'ni:

- ijtimoiy-siyosiy iklimga ijobiy tasir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muxit butunlay uzgaradi.;
- insonning xayotidan uz urnini topish jarayoni tezlashadi;
- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi;
- jamiyatimizning potentsial kuchlarini ruyobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;
- fuqarolik jamiyati kurishni ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib urin olishga, uzbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar soxasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta'lim soxasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda xurfikrlilik, bilimga chankoklik, Vatanga mexr-muxabbat, insonparvarlik tuygulari tizimli ravishda shakllantiriladi

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu suz texnikaviy taraqqiyot bilan bog'lik holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki suzdan - "texnos" (techne) - san'at, xunar va "logos" (logos) - fan suzlaridan tashkil topib "xunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni tuliq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan xolda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni kuzda tutadi. Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida

o'quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir kursatishi va bu faoliyat maxsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan kurinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izoxlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta'riflar soni pedagogik adabiyotlarda nixoyatda kupdir. Pedagogik nashrlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil kurinishlarini uchratish mumkin: "o'qitish texnologiyasi", "o'quv jarayoni texnologiyasi", "ma'lumot texnologiyasi" va xokazo.

Pedagogik texnologiya o'qitish jarayoning o'zaro bog'lik qisimlarini tashkiliy jixatdan tartibga keltirish, bosqichlarni kurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni xisobga olgan xolda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Yoxud pedagogik texnologiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yigindisidir. Texnologiya uzining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyixalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Shu bilan birgalikda ma'lum vaqt davomida pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70 - yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning moxiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T. Sakamoto tomonidan "o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yul-yuriqlar tizimi bilan bog'lik bilimlar soxasi" ekanligi e'tirof etiladi

Ob'ektiv borliqni o'rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko'lamda qullanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya moxiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F. Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiradi. SHuningdek, olima zamonaviy o'qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni aloxida fan sifatida qarash lozimligini uqtiradi: "O'qitish texnologiyasi - bu o'quv jarayonini nima real tavsiflasa usha,

o'qituvchiga urnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayaanish zarur bulsa usha. Bu aloxida fan.

Pedagogik texnologiyani fan sifatida e'tirof etish K.K Selevko tomonidan ham ma'qullandi: "Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yullarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta'limda qullaniladigan usullar, printsiplar va regulyativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir". Olimning ta'qidlashicha "Pedagogik texnologiya" tushunchasi ta'lim amaliyotida uch ierarxik darajada ishlatiladi:

1) Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik , umumtarbiyaviy) texnologiya ma'lum mintakada, o'quv yurtida, ma'lum o'qitish bosqichida yaxlit ta'lim jarayonini tavsiflaydi.

2) Xususiy metodik (predmetli) daraja: xusuiy predmetli pedagogik texnologiya "xususiy metodika" ma'nosida qullaniladi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yigindisi sifatida bir predmet, sinf, o'qituvchi doirasida qullaniladi (fanlarni o'qitish metodikasi, o'qituvchi, tarbiyachining ishlash metodikasi).

3) Lokal (modulli) daraja: lokal texnologiya uzida o'quv - tarbiyaviy jarayonning ayrim qismlarini, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalar enchimini uzida mujassamlashtiradi (aloxida faoliyat turlari texnologiyasi, tushunchalarni shakllantirish, aloxida shaxs sifatlarini tarbiyalash, dars texnologiyasi, yangi bilimlarni egallash, mustaqil ishlash texnologiyasi va boshqa).

I.YA. Lernerning fikricha, pedagogik texnologiya - "o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orkali ishonchli anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi"

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan kurinib turibdiki, pedagogik texnologiya belgilangan boshlangich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyixalash sifatida talkin etiladi. Bu bir jixatdan tugri, lekin teranrok fikr yuritilsa uning bir yoklamaligi kuzga yakkol tashlanadi yoki bunday yondashuvlarda o'quvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchilikni birinchi bulib akademik V.P. Bespal'ko

paykadi va uzining yirik asarida “pedagogik texnologiya - bu o’qituvchi maxoratiga bog’lik bulmagan xolda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan o’quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyixasidir“ deb ta’rifladi. Bu ta’rif mazmunidan muxim ilmiy printsiplarni aloxida ajratib kursatish mumkin:

- pedagogik texnologiya o’quvchi(talaba)larda ma’lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyixalanadi;
- loyixalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o’qituvchisidan katta maxorat talab etmaydi;
- yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga karatilgan ta’riflarning xilma-xilligi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada echilganligini kursatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani amaliyotga joriy etishga bulgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy saloxiyatini birlashtirishga imkoniyatlar etarli. Nazariya va amaliyot birligining ta’minlanishi pedagogik texnologining asl moxiyatini aniqlashga yul ochadi. Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiya pedagogika fanining aloxida tarmogi sifatida yoki fakat ta’lim amaliyotini makbullashtirishga yunaltirilgan tizim deb karash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu soxadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Darvoke, pedagogik texnologiyaga “yangi“ suzini kushib ishlatilishi nazariyachi olimlar va o’qituvchilarni bir kadar uylantirib kuydi, endilikda ta’lim-tarbiya jarayonini loyixalashga eskicha yondashish mumkin emasligini anglashga harakat qilmoqdalar. SHunday ekan, “yangi pedagogik texnologiya“ nimani anglatadi? Bu savolning echimini izoxlashga harakat qilamiz.

Birinchidan, pedagogik texnologiya ta’lim (tarbiya) jarayoni uchun loyixalanadi va belgilangan maqsadni echishga karatiladi. Binobarin, har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos

xolda ma'lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o'quv yurti) mavjud buladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma uz ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy xolda belgilab beradi. "Maqsad" esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yunalishga burdi, ya'ni: "o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitdan to'la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axlokiy talablarga javob beradigan yukori malakali kadrlar tayyorlash" deb belgilanadi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos xolda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nixoyatda kengayib boryapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bulgan yangi texnologiyalar (sanoat, kishlok xujaligi, elektron, axborot va boshka) kirib kelmoqda. Ruy berayotgan sifatiy uzgarishlar shundan dalolat beradiki, endilikda "urganish"ning birlamchi jarayonlari an'anaviy metodika va o'qitish vositalari romiga sigmay, o'qituvchining individual kobiliyatariga mos kelmay koldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas kismiga aylanib borayotgan va unga uzining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizualli vositalar mavjudki, ular yangi pedagogik texnologiyani real vokelikka aylantirdi.

Pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'lik bilimlar soxasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bulmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chikarish, biologik, xatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning uziga xos tomonlari - tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

II.2. Talim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish

Hozirgi kunda talim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, etibor kundan-kunga kuchayib boromoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha ananaviy talimda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Talim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egallarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini taminlaydi.

Innovatsiya (inglizcha *innovation*) – yangilik kiritish, yangilikdir.


Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik tasir etish usullari bo'lib talim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taminlashi;
- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, yani o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir talim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi – talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, yani o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning extiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.



Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, metod, shakl, vositaga, yani texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va o'quvchi-talabanning maqsadli natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, TSO'ni, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani talimning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar. Usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Darsning texnologik kartasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik

karta qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak.

O'qituvchi tomonidan o'zi o'qitayotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fani, predmetni yaxlit xolda tasavvur etib yondoshishga, tushunishga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik kartani o'quvchi-talabanning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida talimning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

II.3 Talimning interfaol metodlari

Inter ingliz tilidagi «inter» old qo'shimchasidan iborat bo'lib, u tom manoda o'zaro tasir, yo'nalganlik manosini anglatadi. Bu erda inter so'zi keng doirada, xalqaro miqyosdagi tasir, harakat, yo'nalganlik mazmuniga ega. Interfaol atamasiga kelsak, u «interactive» yani keng xalqaro miqyosdagi harakat faolligini bildiradi. Lotincha inter so'zining manosi – ichki potentsial imkoniy quvvat degani.

Malumki, har bir inson o'z ichki imkoniy quvvatiga va o'zgalarda qaytarilmas fazilatga ega.

Interaktiv usul tarbiya nuqtai nazaridan, har bir kishini ruhiy, ilohiy tavsifini ko'zda tutgan hoda, xalqaro miqyosdagi talim – tarbiya yangiliklarni hamda manaviy manbalarimizdagi aks ettirilgan intellektual salohiyatimiz ko'nikmalari asoslanib komil farzand tarbiyalash demakdir.

G'arbda pedagogikaning interfaol metodlari bilan shug'ullanadigan qismini interaktiv pedagogika deb ham yuritiladi.

Interaktiv pedagogika yoshlarni talabalarni faolliklari xilma-xilligini hamkorligi, hayrihohligi asosida ularni yangi faollika, bunyodkorlikka, yaratuvchanlikka undovchi pedagogika bo'lib, talabalarga bunday sifatlar ular erkin fikrlash asoslarini egallaganlaridan keyin shakllana boshlaydi, rivojlanadi.

Interaktiv pedagogika yangi talim asosida talim – tarbiyaning hamma shakllarida joriy etilmoqda. Masalan, maruzalarda, interaktiv pedagogikaning munozara, muomalalar muhokamasi, aqliy xujum, baxslar kabi usullaridan keng foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarda esa seminar, og'zaki, yozma kolokviumlar, referatlar muhokamasi, faol eksperiment, amaliy o'inlar metodlaridan keng foydalanilmoqda. Ammo shunga qaramay. G'arb davlatlaridan bizga interaktiv pedagogikaning bir qancha karorlar shajarasi. Ajurli arra, Snejniy kom, tajribalar, tadbirlar hamkorligi kabi metodlari kabi metodlari kirib keldi.

Inson imkoniyatlarining yana bir mo'jizaviy tomoni shundan iboratki, har bir kishi nodir va betakror bo'lishi bilan birga u ijtimoiylikka muxtoj qilib

yaratilgan. Yani xatto har bir qobiliyatli kishi o'z aqliy – amaliy imkoniyatlaridan optimal foydalanganda ham intellektual imkoniyatlarini faqat – 4-5% ini ishga sola oladi. Shuning uchun kishilarning qiziqishi, qobiliyatlar yo'nalishi turlicha bo'lib ular jamoalashganda aqliy imkoniyatlarning foydali ish koefitsenti ko'payadi.

Interaktiv pedagogika talabalarda ijobiy hamkorlikning har bir kishi uchun qanday katta manfaat kasb etishini amalda ko'rsatadi. Shunda talabalar fikrlari hilma – hilligidan cho'chimaydilar, balki undan o'zaro manfaatdor bo'ladilar va atrofdagi ijtimoiy-iqtisodiy xodisalarga ongli munosabatda bo'ladilar. Interaktiv pedagogika tashkiliy shakli, metodlari, talabalarning o'zaro munosabatlari, talaba va o'qituvchi munosabatlari bilan paternalistik (nasihat va o'ktirishga asoslangan) pedagogikadan tubdan farq qiladi.

Masalan, interaktiv pedagogikaning «munozara» shaklidagi mashg'uloti ikki bosqichli qilib o'tkaziladi. Agar guruhdagi 20 ta talaba bo'lsa, ular 4 tadan yoki 5 kishidan iborat kichik guruhlar shaklida o'tqaziladilar. Yani har bir stolga davra qilib o'tiriladi. Shunday qilib, guruhda 4 yoki 5 ta davra hosil bo'ladi. Bugungi mashg'ulotda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo 4 yoki 5 ta masalaga bo'linadi. O'qituvchi guruhlar hal qilish lozim bo'lgan masalalarni alohida qog'ozlarga yozib keladi.

Har bir guruhga turli savollar tarqatiladi. Agar muammo yangi bo'lsa, har bir kartochka – qog'ozda savollarga qisqacha yordamchi izohlar berilishi kerak. Eki muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan materiallar bilan tanishish talabalarga oldindan topshiriladi. Har bir guruhga o'zlari olgan masalalarni kichik guruhlarda o'zaro ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yib munozarani tashkil qilish va tegishli javob hozirlash uchun 5-10 minut beriladi (qiyinlik darajasiga qarab). Keyin munozaraning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Unda har bir kichik guruh vakili o'zlari hal qilgan masalani bugun guruhga, jamoaga gapirib, isbotlay berishi kerak. Bu vakilning javobi boshqa guruh azolari tomonidan umumiy munozaraga olinadi va umumiy yakuniy xulosa chiqariladi. Bunda

professor-o'qituvchi munozaraga ijodiy hamkor sifatida, eng zarur paytlarda ishtirok qilish kerak.

Fikrlarni to'g'ri, noto'g'ri deb tasdiqlamasligi kerak. Chunki u erkin fikrlashga to'siq bo'ladi. Albatga, professor-o'qituvchi xulosaviy fikrlarda agar bo'lsa, yordamga kelishi kerak. Xuddi shunday beshta guruhlarining javoblari munozarada hal qilingach, (5-10 minutdan) umumiy qo'yilgan muammo muhokamasiga hamma qatnashadi. Yakuniy xulosalar doskaga yoziladi. Talabalarga tegishli reyting ballari munozara davomida va munozara yakunida quyila boradi.

Interaktiv pedagogika talabalarni amaliy va nazariy faollikka yangi g'oyalar izlashga, o'z fikrlari, g'oyalarini himoya qilishga, o'z g'oya fikrlarini isbotlashga, boshqalarni fikrlariga hurmat va tanqidiy qarashga, muloqot, munozara olib borish sifatlarini o'stirishga, mustaqil ishlashga, amaliy ijodkorlikka, amaliy sifatlarga ega bo'lishga o'rgatadi.

Interaktiv pedagogika professor-o'qituvchilarga o'zlari o'qitayotgan fanlarini zamonaviy talimiy, ijodiy-amaliy rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarini aniq belgilab olib milliy talim modelidagi uzluksiz talim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida interaktiv pedagogikadan o'rinli foydalanib zamon talabi darajasidagi etuk mutaxassislarni tayyorlashdagi o'zlarining sharaflari vazifalarini bajarishlari kerak.

Professor-o'qituvchilar interaktiv pedagogika yordamida internetdan, masofadan turib o'qitish, axborot texnologiyalari asosida ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqarish, ularni hayotga joriy qila bilishlari kerak.

II.4 O'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalarni turlari.

O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qullanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, masuliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga pedagoga va o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan bazilari haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida qo'llanma beramiz. Ushbu metodik qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchi-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tankidiy, mustakil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, etuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O'qitish jarayonida turli texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bularga quyidagilar karadi.

«Aqliy hujum» metodi – o'qituvchi o'quvchi egallashi kerak bo'lgan mavzuni oddiydan – murakkabga tomon bosqichma bosqich loyihalab beradi.

«Tarmoklar» metodi – o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

«3×4» metodi – o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, talim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, tarif bera olishiga qaratilgan.

«Blits-o'yin» metodi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, malumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

«Intervyu» texnikasi – o'quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to'g'ri javb berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

«Ierarxiya» texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

«Bumerang» texnikasi – o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

«Talaba» treningi – o'quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

«O'qituvchi shaxsi» treningi – o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi «O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talabalar» mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

«Muloqot» texnikasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonidahamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

«Boshqaruv» texnikasi o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

«Tarmoqlar» metodi (Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadlashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish,

umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«Bumerang» texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolda bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi.

«Bumerang» texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- muomalalik;
- xushfellik;
- ko'nikuvchanlik;
- o'zlarga fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;
- o'zini xolis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar – bu savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Ėpiq savollar – bu savollar oldindan «ha»yoki «yo'q» tipidagi to'g'ri, ochiq, javoblarni berishni ko'zda tutadi.

Ko'ndalang so'roq – bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko'ndalang so'roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

«Skarabey» texnologiyasi

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

«Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);
- mavzuni o'rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;
- oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

«Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni engillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin.

Talimdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga masullik va qiziqish uyg'otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

- Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

- Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

«Veer» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ntarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Veer» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«Veer» texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab etish;
- yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat – ijobiy sifat.

Nuqson – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Talimdan tashqari «Elpig'ich» texnologiyasi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosali qarorlarni topa olish mahorati;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- faollik;
- muammoga diqqatini jamlay olish mahorati.

Aqliy hujum

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metoddir. Bu haqiqatan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham

faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'kuv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida engillashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

Asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqidning mavjud emas.
3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

X U L O S A

XXI asrga qadam qo'yish arafasida jamiyatimizda tub islohotlar amalga oshirildi, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy o'zgarishlar inson baxt – saodati va kamoloti uchun xizmat qiladi, erkin fikrlaydigan shaxs tarkib topadi. Ana shu jarayonlarda ta'lim tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Chunki pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini inqirozdan xoli etish, uni bozor iqtisodi sharoitiga mos holda takomillashtirish va Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiya bo'yicha mashg'ulotlarni amalga oshirish — bu jahon ta'lim standartlari talablariga mos ravishda dars o'tish demakdir. SHuning uchun ham keyingi yillarda ta'lim tizimida yangi pedagogik mahorat bo'yicha mashg'ulotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Yangi pedagogik texnologiya fan sifatida oliy ta'lim tizimidan chuqur o'rin olmoqda, chunki ta'limga texnologik yondoshuv o'z samarasini ko'rsatmoqda. Yurtimizda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda belgilangan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda eng ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy etish dolzarb vazifadir.

Yangi asrda ta'limni harakatlantiruvchi kuch o'zida aniq didaktik masalalarga qaratilgan pedagogik texnologiyalar hisoblanadi.

Pedagog va tarbiyachilar oldida dolzarb muammo ham yoshlarni mustaqil fikrlashga, o'z mavqeini himoya qilishga, tanqidiy fikrlashga undaydigan fan mavzulari bo'yicha amaliyotga tadbqiq etish hisoblanadi.

Yangi pedagogik texnologiyani amalda qo'llashda har bir fanning o'ziga xos tomonlarini hisobga olish kerak.

Yuqorida aniqlangan mezonlar asosida mos keladigan o'qitish va o'rgatish dasturini ishlab chiqish uchun o'qituvchi quyidagilarga qodir bo'lishi lozim:

- haqiqatda mavjud o'rgatish malakalariga ega bo'lish;
- tinglovchilarning bilim darajasini baholash uchun o'rnatil-gan meyorlarni aniqlash mezonini tushuntirib berish;
- namunaviy mashg'ulotlarni o'qitishning maqsadlari qilib olish;
- tinglovchilarning ommaviy kasb-hunarlarini yaxshi o'zlashtirishlari uchun rejalashtirilgan loyiha va o'qitish uslublarining mosligini aniqlash.

Kurs dasturi joriy qilingandan keyin o'qituvchi kursning mazmunini yoki uslublarni tekshirish, tinglovchilar, xodimlar yoki boshqa qatnashchilar bilan teskari aloqa o'rnatishga qodir bo'lishi lozim.

O'qitishga oid ko'rsatmalar:

- Shaxsiy o'qitish uslubiga tanqidiy nuqtai nazardan qaramaslik.
- Bazi bir o'qituvchilar o'z ustilarida ishlamay, eskicha uslubda o'qitishda davom etishadi.
- Nima uchun o'qituvchilar o'z o'qitish uslublarini o'zgartirishlari lozim?
 - Ular o'z auditoriyasiga ega va bu auditoriya ularni hurmat qiladi.
 - Sinfda yoki boshqa bir o'qitish bilan bog'liq muhitda, haqiqatda, qanday hodisalar ro'y berayotganligidan xabardor bo'lish va o'qitish jarayonining to'g'ri olib borilayotganligini sistematik ravishda aniqlab borish maqsadida o'qituvchilar o'z o'qitish uslublarining talabga mos kelish yoki kelmasligini tekshirib borishlari ular uchun katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.2008 y.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.2001
3. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi. T.2002.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.2004
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: Nasaf. 2000.
6. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). - T.: Moliya, 2003.
7. Ta'limning faol usullari. Uslubiy tavsiyalar. TVPQTMOI. T.2004.
8. To'raqulov E., Rahimov S. "Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim tarbiya haqida" T.: O'qituvchi, 1993.
9. Maxmutov M., Ibragimov G.I., Ushakov M.A. Pedagogicheskie texnologii, razvitie mishleniya uchashixsya. – Kazan`: 1993
10. Olimov Q.T., O.A.Abduquddusov, M.M.Axmedjonov, va boshq. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: «Moliya», 2006.
11. Pedagogika: pedagogicheskie teorii, sistemi texnologii. Pod red. Smirnova M: Izdatel'skiy tsentr «Akademiya», 1999.
12. Pedagogicheskaya texnologiya / Pod red. Kukushkina V.S. – Seriya «Pedagogicheskoe obrazovanie» - Rostov. Izdatel'skiy tsentr Mart, 2002. Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika. O`quv-uslubiy qo`llanma. T.: 2007.
13. Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O`quv qo`llanma. – T.: Fan va texnologiyalar., 2009.
14. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Ta'lim markazi, 1999.
15. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). T.: Moliya. 2003.

16. Selevko G. K. Sovremennie obrazovatel`nie texnologii.- M.: Narodnoe obrazovanie, 1998..
17. Tolipov O`, Usmonboeva M. «Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari». O`quv qo`llanma. Fan. O`zPFITI, 2006.
18. Farberman B.L. Progressivnie pedagogicheskie texnologii. – T.: Fan, 2002.
19. Shodiev N. Yangi pedaggik texnologiyalar.- S., 2001.